

**QOZOQ VA O'ZBEK MILLATIDA "ALPOMISH" DOSTONINING
VERSIYAVIYLIGI. DOSTONDA URF-ODATLAR NAMOYONDALARI**

Qursanbekova Diyorgul Aqbergen qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Hafizova Feruza Odiljonovna

Ilmiy rahbar, Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7301589>

Annotatsiya. Bizga qadimdan ma'lumki, o'zbek xalq og'zaki ijodi - millatning azaldan qadriyatga aylanib kelayotgan janrlarini, milliyligini, o'zligini aks ettiruvchi fan sifatida alohida e'tiborga molikdir. Xalq og'zaki ijodi – bu millatning boqiy tarixi. Qadimgi urf-odatlarini, an'analarni mifologik olamni biz o'zbek xalq ijodini o'rganish mobaynida o'zlashtiramiz, kerakli manbalarga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar: folklor, yurt, milliylik, doston, qadriyatlar, qahramonlik dostonlari.

**ВАРИАНТ ЭПОСА «АЛПОМЫШ» У КАЗАХСКОГО И УЗБЕКСКОГО
НАРОДОВ. ТРАДИЦИИ ПРОЯВЛЯЮТСЯ В БЫЛИНАХ**

Аннотация. Нам давно известно, что узбекское народное искусство имеет особое значение как наука, отражающая жанры, народность, самобытность нации, которые с незапамятных времен приобретают ценность. Народное творчество является вечным достоянием нация история. Мы познаем древние обычаи, традиции и мифологический мир во время изучения узбекского народного творчества, получаем необходимые ресурсы.

Ключевые слова: фольклор, страна, народность, эпос, ценности, героические былины.

**THE VERSION OF THE EPIC "ALPOMISH" IN THE KAZAKH AND UZBEK
NATIONS. TRADITIONS ARE MANIFESTED IN EPICS**

Abstract. It has been known to us for a long time that Uzbek folk art is of particular importance as a science that reflects the genres, nationality, and identity of the nation, which have been becoming valuable since time immemorial. Folk art is the eternal history of the nation. We learn the ancient customs, traditions and mythological world during the study of Uzbek folk art, we get the necessary resources.

Key words: folklore, country, nationality, epic, values, heroic epics.

KIRISH

Folklor ya'ni o'zbek xalq ijodi deganda bevosita baxshilar tomonidan kuylangan dostonlarni eslaymiz. Ular xalq og'zaki ijodining yorqin namunalari. Ularda xalq turmush tarzi, sharoitlari va o'z davriga xos urf-odatlarini namoyon. Bizning bugungi kundagi urf-odatlarimiz ham balki o'sha davrlardan shakllanib kelgandir. Ko'pincha dostonlarda yoriga qiyinchilik va mashaqqatlar orqali yetishgan mardlar, yurt tinchligi uchun qahramonlik ko'rsatgan botirlar madh etilgan. Dostonlarga murojaat etar ekanmiz, "Alpomish" dostoni hech ham e'tibordan chetda qolmagan. Uni ham ishqiy sarguzasht doston, ham qahramonlik doston deya olamiz. Chunki unda yurtini yovdan himoya qilish, yorini o'zga qo'llardan qutqarish va ota-onaga bo'lgan hurmat, do'st-yorga bo'lgan sadoqat kuylanadi. Eng avvalo bu dostonning o'qishli darajaga yetishiga mohir baxshilar sabachidir. Doston bitta baxshi tomonidan emas, balki bir nechta baxshilar tomonidan kuylangan va sayqallangan. Bu ilmiy tilda variantlilik deyiladi. Olimlar M. Jo'rayev va J. Eshonqulov o'zining "Folklorshunoslikka kirish" asarida

variantlilik haqida ushbu jumalarni keltirib o'tgan: "Variantlilik - ma'lum bir asarning jonli og'zaki epik an'ana zaminida vujudga kelgan, bir-birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o'zaro farqlanuvchi turli-tuman nusxalaridir. Variantlilikning muhim bir xususiyati – ma'lum bir versiya ichida mavjud bo'lishidir".⁹ Demak "Alpomish" dostonining varianti bir qancha.

METOD VA METODOLOGIYA

Dostonlarda variantlilik bilan birga versiyaviylik tushunchasi ham mavjuddir. Maqola mavzusidan shuni anglashimiz mumkinki, dostonning birnecha versiyasini kuzatishimiz mumkin. Shu o'rinda yana M.Jo'rayev va J. Eshonqulov asariga yuzlanamiz. Asarda versiyaviylikka shunday ta'rif berilgan: "Versiya mohiyatan birmuncha keng hodisa bo'lib, biror asarning turli talqinlarda, kompozitsion qurilishda, ba'zan qahramonlarning o'zgacha nomlanishida keluvchi yagona syujet va janr doirasidagi namunalarini o'z ichiga oladi. Versiyalar ma'lum bir urug' va qabilalarning turli joylarga tarqalib, turli ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi, u yoki bu asarning o'zaro yonma-yon, qo'shni yashayotgan turli xalqlar orasiga yoyilishi sababli paydo bo'ladi".¹⁰ Barchamizga ma'lumki, "Alpomish" dostoni keng ko'lamli va keng tarqalgan dostonlarning biri hisoblanadi. Ushbu dostonning versiyalarini nafaqat o'zbek tilida, balki qozoq, tojik va boshqa tillarda ham kuzatishimiz mumkin. Men ushbu dostonning o'zbek va qozoq tilida yaratilgan versiyalari bilan tanishib chiqdim. Asarda eng asosiy farq bu – ikki millat ham dostonda o'z urf-odatini namoyon etishga harakat qilgan. Baxshilar va oqin-jiraular dostonni kuylash jarayonida uni milliylik bilan qorishtira olgan. Qozoq va o'zbek millatining bir-biridan farqlanuvchi omillari va birlashgan nuqtalari dostonda o'z aksini topgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, asarning boshlanishiga alohida e'tibor qaratish joiz. Asardan shu narsa ma'lumki, voqealar jarayoni Boysun yurtida bo'lib o'tgan. Shu o'rinda savol tug'iladi. Boysun yurti Qozog'istonga tegishlimi yoki O'zbekiston hududiga tegishlimi? Ma'lumotlarga qaraganda, qozoq tilida yozilgan ayrim rivoyatlar, afsona-yu dostonlar Boysun yurtida bo'lib o'tgan ekan. Shu jumladan, "Alpomish" dostoni ham. Lekin ushbu joy nomi asarlarda "Jideli Boysun" yurti deb nomlanib ketgan. Bu hudud Qozog'iston hududida ham mavjud bo'lib, afsonaviy joy nomiga aylangan, lekin xozir ushbu hudud mavjud emas. O'zbekiston nuqtayi nazaridan tahlil qilsak, bu hudud mavjud va u Surxondaryo vohasiga tegishli tumandir. U hududda haliyam "Alpomish" dostoning ta'siri urf urib turadi. Negaki, u yerda hali hamon "Alpomish izdoshlari" yoki "Barchinoydek jasur qizlar" tushunchasi mavjud. Xullas, Boysun yurti ikki davlatda ham mavjud ekan.

TADQIQOT NATIJALARI

Keying farqlanadigan bosqich - Boybo'ri bilan Boysari. Qozoq millati oqinlari ularni yaqin o'rtoq deb ketgan bo'lsa, o'zbek baxshilari ularni aka-uka deb kuylab ketgan. Qozoq tilidagi ayrim variantida ularning ajralishib ketishiga sabab uloqda tortishib qolganligi bo'lsa, ayrim variantlarida ularning juda qalin do'st va qalmoqlar tufayli yurtidan ketganligi sababi berilib ketilgan. Lekin o'zbek tilidagi versiyasida ularning qondosh bo'lganligi va arzimagan sabab yuzasidan bir-biridan yuz o'girishi qayd etilgan. Bu jarayonda ham ma'lum bir ma'noda milliylik namoyon bo'lgan. Uloq chopilishi ya'ni ko'pkari bu qozoq millatida milliy o'yin hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qarashimiz mumkinki, versiyaviylik kelib chiqishining yana bir

⁹Jo'rayev M, Eshonqulov J Folklorshunoslikka kirish, - Toshkent, 2017

¹⁰ Jo'rayev M, Eshonqulov J Folklorshunoslikka kirish, - Toshkent, 2017

sabablaridan biri bu - milliylikni aks ettirish. Asarda Qultoy obrazi mavjud. Qozoqlar uni Boybo`rining qarindoshi degan bo`lsa, o`zbeklar esa qo`l ostida ishlaydigan otboqar xizmatchisi sifatida keltirib o`tgan. Alpomishning tug`ilishi ham, uni Ollohdan nola qilib so`rashi ham ikki xil bayon etilgan. Birida Boybo`ri ayoli bilan yurt kezib, turli xil razvalarga tunasa, ikkinchisida ukasi Boysari bilan Shohimardon pir razvasiga yo`l olib, qiriq kun qiriq tun tunab farzand so`ragan. Ularning ismlarining qo`yilish jarayoni ham ikki xil tus olgan. Alpomishning katta bo`lishi, uning kuch-qudratga to`lishi ikkala versiyada ham bir xil kuylangan. Barchinoyini izlab yo`lga otlanishida bir nechta farqlarni kuzatamiz.

MUHOKAMA

Qozoq tilida yozilgan dostonda Alpomish Barchinoy haqida bir kampirdan eshitib qoladi. Alpomishda shunday xususiyat bo`ladi: uning qo`li kimga tegib ketsa, qo`lning og`irligini ko`tara olmay joyida o`ladi. Va kunlardan bir kuni xuddi shunday xodisa ro`yberadi. U bir kampirning nevarasini birga o`ynaymiz deya turtib uyg`otmoqchi bo`lgan paytida uni o`ldirib qo`yadi va o`sha paytda kampir dod-faryod solayotib: “Bu kuching odamlarni farzandidan judo qilganingdan ko`ra, yoring Barchinoyini qalmoq qo`lidan qutqarsang bo`lardi” – deydi. Bu gaplarni eshitgan Alpomish kampirdan uzrini so`rab, parishonxayol oldinda yurib ketadi. Bu voqealar qozoq tilida yozilgan versiyada keltirilgan. O`zbek tilida esa unga Barchinoydan xat kelishi, lekin otasi xatni yashirib qo`yishi va singlisi Qaldirg`och tufayli xatdan xabardor bo`lishi bayon qilingan. Bu ham farqli jihatlaridan biri hisoblanadi. Qozoq oqinlari Alpomish bilan Barchinoyning topishishini, ularning oila qurishini oddiyroq keltirib o`tgan ekan. Alpomish unda faqat Qaraman bilan olishgan. O`zbek baxshilari esa bu jarayonda turli xil xavfli jang-jadallar, bellashuvlar bo`lganligini kuylaganlar. Bunda Alpomish yettita aka-uka bilan olishadi. Asarning umumiy mazmuni ikki tilda ham nisbatan bir xil. O`zgartirib kuylanganligining sababi ikki millatni bir-biridan ajratib turuvchi urf-odatlaridir. Qozoq va o`zbek millati urf-odatlariga to`xtalamiz. Qozoq millatida xaligacha “Quyriq-bauir yedirish”, “To`n kiydirish” marosimlari o`tkazilib kelinadi. Bu asosan quda-anda tutinayotganlar uchun o`tkaziladigan marosim sanaladi. To`y bazmida qudalar o`zaro mustahkam munosabat o`rnatish yuzasidan bir-biriga to`n ya`ni milliy choponlar kiydirishadi. Shu va shunga o`xshagan milliy urf-odatni o`zida aks ettirgan ushbu doston bugungi kunda xalq uchun maxsus qo`llanma hamdir. O`zbek baxshilari ham bu jarayonni chetlab o`tmagan. Xozirda kamayib ketgan urf-odatlardan biri “Soch siypatar” marosimi dostonida keltirilgan. Xozirgi barcha asarlarning tag ma`nosida dostonlar mujassamdir.

XULOSA

Dostonlarni mutolaa qilsak, o`tmishga bevosita sayohat qilgan bo`lamiz. Yaratilgan va yaratilayotgan har qanday buyuk asarlar xalq og`zaki ijodidan namuna oladi. Shunday ekan, ularni mutolaa qilishda har bir jihatiga alohida e`tibor bilan yondashaylik.

REFERENCES

1. Jo`rayev M, Eshonqulov J Folklorshunoslikka kirish, - Toshkent, 2017
2. “Alpomish” dostoni variantlari
3. “Alpomish” dostoning qozoq tili versiyasi